

“Talabaning bir kuni” tanlovi

NIZOMI

I. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Nizom yoshlar o‘rtasida “Talabaning 1 kuni” institut tanlovini (keyingi o‘rinlarda – Tanlov deb yuritiladi) o‘tkazish tartibini belgilaydi.
2. Ushbu Tanlov yoshlarning bo‘sh vaqtlarini unumli o‘tkazish, OTMning hayotida va faoliyatida ishtirokini ta‘minlashga qaratilgan ustuvor vazifalarni izchil amalga oshirishga yo‘naltirilgan.
3. Tanlovni yuqori saviyada o‘tkazish uchun Xalqaro hamkorlik bo‘yicha prorektor, Matbuot kotibi, Raqamli texnologiyalar markazi, Yoshlar masalalari, ma‘naviyat va ma‘rifat bo‘limi, dekanlar mas‘ul etib belgilanadi.
4. Buxoro davlat tibbiyot institutida tahsil olayotgan millati, dini, ijtimoiy kelib chiqishi va tilidan qat’iy nazar talaba bo‘lgan barcha yoshlar Tanlovda ishtirok etish huquqiga ega. Ishtirokchilar talabidan kelib chiqib, ularning Tanlov jarayonida barcha tillaridan foydalanishiga ruxsat beriladi.
5. Tanlov ishchi guruhi Tanlov nizomiga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish vakolatiga ega.

II. Tanlovning maqsad va vazifalari

6. Institutda tahsil olayatgan talabalarning hayoti, o‘qish jarayoni, ilmi, ma‘naviy-ma‘rifiy, sport va boshqa tadbirlarda ishtirokini yoritish orqali institutning global dunyodagi o‘rni va prestijini oshirish, tibbiy ta‘lim boy merosini, umumbashariy sivilizatsiya, madaniyat, dunyoviy va diniy ilm-fan taraqqiyotiga ulkan hissa qo‘shishi, ibratli hayoti va ijtimoiy faoliyatini har tomonlama chuqur o‘rganish va targ‘ib etish, yoshlarimizni o‘zlikni anglash, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash, ular o‘rtasida odob-axloqni keng ommalashtirish maqsadida tashkil etiladi.
7. Tanlovni tashkil etish orqali quyidagi vazifalar bajarilishi ko‘zda tutiladi:

yoshlarning barcha qatlamlarini oli ta‘lim va talabalik hayotiga qiziqtirish orqali ta‘lim olishga da‘vat etish hamda oliy ma‘lumot olishga bo‘lgan qiziqish va intilishlarini qo‘llab-quvvatlash, joylarda madaniy-ma‘rifiy muhit shakllanishiga erishish;

yoshlar ongida ta‘lim, madaniyat, milliy va umuminsoniy qadriyatlar,

ijtimoiy hayot haqidagi tushuncha va bilim-ko‘nikmalarini yanada yuksaltirish; umumbashariy sivilizatsiya, madaniyat, yoshlarni o‘zlikni anglash, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash, ular o‘rtasida ta‘lim olish madaniyatini keng ommalashtirish.

III. Tanlovni tashkil etish va o'tkazish tartibi, baholash mezonlari

8. Tanlovni tashkil etish va uni o'tkazish vazifasi institut ishchi guruhi zimmasiga yuklatiladi.

Institut ishchi guruhi:

Tanlovni o'tkazish borasida qaror qabul qiladi;

Tanlovning asosiy bosqichlari va tartib-qoidalari haqida ishtirokchilarni xabardor qiladi;

barcha ishtirokchilar uchun teng sharoitlarni yaratadi;

tanlov o'tkazish borasida oshkoralikni ta'minlaydi;

Tanlov ishtirokchilari o'rtasida yuzaga keladigan nizolarni hal etadi;

mazkur Nizomga asoslangan holda Tanlovni o'tkazilishini tashkil etadi.

9. Tanlovga ishtirokchilar onlayn va an'anaviy tarzda ariza topshirish orqali qabul qilinadi.

10. Tanlovda yoshlar o'zlari yashayotgan yoki o'zlari o'qiyotgan (ishlayotgan) muassasasi joylashgan hududdan ishtirok etadi.

11. Tanlov bir bosqichda tashkil etiladi.

tanlovning arizalar qabul qilish va saralash bosqichi bo'lib, unda tanlovda ishtirok etish istagini bildirgan yoshlardan arizalar qabul qilinadi va ishtirokchilarning video kontentlari saralanadi.

Tanlovga arizalar saralash bosqichi boshlangan vaqtga qadar qabul qilinadi.

saralash bosqichi 100 ballik tizimda olib borilib, unda 56 va undan yuqori ball to'plagan ishtirokchilarga o'rinlar belgilanadi.

12. Tanlovda mas'ullar, professor-o'qituvchilar va boshqa mutaxassislardan iborat Hakamlar hay'atlari tuziladi.

Hakamlar hay'ati ishtirokchilarni baholashda ularning video roliklari quyidagi baholash mezoniga asoslanib tekshiradi va har bir mezonga maksimal 10 ballgacha baho qo'yadi:

1. Mavzuga muvofiqlik.
2. Ssenariyning ishlab chiqilishi, yaxlitligi va o'ziga xosligi.
3. Grafik materialning ssenariyga muvofiqligi.
4. Taqdimot mantiqiyligi.
5. Kompozitsion yaxlitlik.
6. Montaj sifati.
7. Taqdim etilgan ma'lumotlarning to'liqligi.
8. Ovozli fonning video ketma-ketligiga muvofiqligi.
9. Taqdimot madaniyati va badiiy uslub
10. Xulosa

Bunda videoroliklar an'anaviy, kreativ va xorijiy tilda kabi 3 ta toifaga ajratiladi.

Barcha mezonlar bo'yicha umumiy ballar qo'shib hisoblanganda eng yuqori ko'rsatkichga erishgan ishtirokchi tanlovning g'olibi deb topiladi. Agar ishtirokchilar o'rtasida umumiy to'plangan ballar teng kelib qolgan taqdirda, I, II va III o'rinlarni taqsimlash Hakamlar hay'ati a'zolari tomonidan hal etiladi. Bunda ballari teng kelib qolgan ishtirokchilarning video roliklari 1 nafar mustaqil ekspert tomonidan baho berilib, umumiy ballar yig'indisiga qo'shihsiz yo 'li bilan aniqlanadi.

13. Hakamlar hay'ati tomonidan qabul qilingan qarorga nisbatan qaror nusxasi berilgan sanadan boshlab 1 kunlik muddat ichida manfaatdor shaxs institut ishchi guruhiga apellyatsiya tartibida shikoyat kiritish huquqiga ega.

14. Institut ishchi guruhi 1 kunlik muddat ichida murojaatni ko'rib chiqib, quyidagi qarorlardan birini qabul qiladi va qaror nusxasini murojaat qilgan shaxsga yuboradi:

shikoyatni qanoatlantirishni rad etib, Hakamlar hay'atining qarorini o'zgarishsiz qoldirish;

shikoyatni qanoatlantirib, Hakamlar hay'ati qarorini qisman yoki butunlay bekor qilib, yangi qaror qabul qilish.

15. Institut ishchi guruhi apellyatsiya tartibida shikoyatni ko'rib chiqishi bayonnoma bilan rasmiylashtiriladi.

IV. G'oliblarni taqdirlash

Tanlov g'oliblari quyidagi tartibda taqdirlanadi:

Tanlovning mahalliy bosqichi g'oliblari:

birta 1-o'rinni egallagan ishtirokchilarning har biri 2 000 000 so'm va diplom bilan va 10 kunga VR ko'zoynagidan bepul foydalanish;

ikkita 2-o'rinni egallagan ishtirokchilarning har biri 1 000 000 so'm va diplom bilan;

uchta 3-o'rinni egallagan ishtirokchilarning har biri 500 000 so'm va diplom bilan taqdirlanadi.

qolgan ishtirokchilar sertifikat bilan taqdirlanadi.

Hakamlar tomonidan saralangan videoroliklar institut sayti, YouTube va boshqa tarmoqlarda joylashtiriladi.

V. Yakuniy qoidalar

16. Tanlovni o'tkazish bilan bog'liq sarf-xarajatlar quyidagi manbalar hisobidan moliyalashtiriladi:

institutning budjetdan tashqari mablag'lari;

jismoniy va yuridik shaxslarning homiylik xayriyalari;

qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar.